

**GLOBAL IQTISODIYOT SHARITITDA TIJORAT BANKLARINING
VALYUTA OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

To'xtayeva Umida Shamsiddin qizi

Toshkent Moliya instituti Magistratura va kechki ta'lim fakulteti KBIA

72guruh talabasi

Annotatsiya. Maqolada so'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimining valyuta operatsiyalarini takomillashtirish bo'yicha qilingan chora-tadbirlar haqida so'z borgan. Shuningdek, ushbu mavzuga aloqador muammolar aniqlanib, takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Tijorat banklari, bank tizimi, valyuta operatsiyalari, valyuta kursi, valyuta bozori.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida bank xizmatlari sifati va ko'lamini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi va bu hozirgi kunda ham davom etmoqda. Lekin, butun dunyo bo'ylab yuz berayotgan o'zgarishlar, globallasuv jarayoni, raqobatning tez sur'atlarda rivojlanishi, tijorat banklarining transformatsiya jarayonini yanada faollashtirish hamda bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish qay darajada muhim ekanini yana bir bor isbotlaydi. Ushbu jarayonda, bank tizimidagi islohotlarning asosiy maqsadi- tijorat banklarini mijoz uchun ishlashga o'rgatishga qaratilgan. Bu jihatdan, bank tizimini transformatsiyalash borasidagi islohotlarni amalga oshirish, zamonaviy bilimli kadrlarga bog'liq bo'lib, soha vakillarining bank tizimida olib borilayotgan ishlari samarasini va mazmun-mohiyatini yaxshi o'zlashtirganligi asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizda tijorat banlari valyuta operatsiyalarini rivojlantirish borasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular:

1. Xorijiy valyutalarga bo'lgan barqaror talabning yuzaga kelmaganligi bu holatda Respublika valyuta birjasida AQSH dollarini sotib olishga talab uzluksiz ortib borayotganligi ko'riladi. Buning natijasida esa so'mning AQSH dollariga nisbatan almashinuv kursi to'xtovsiz pasayib bormoqda.

2. Mamlakatda joriy valyuta bozorining likvidligini ta'minlash imkoniyati yuzaga kelmagan. Buning natijasida O'zbekiston banklari tomonidan muddatli valyuta operatsiyalari deyarli amalga oshirilmaydi.

3. Korxonalar va tashkilotlarning joriy valyuta hisob varaqalarini yuritish tartibi haddan ziyod rasmiylashtirilgan va bitimlarning ob'ektiga qarab yo'naltirilgan. Natijada korxonalar faqat belgilangan tovarlarni xarid qilish uchunгина to'lovni amalga oshirish xuquqiga ega. Bu tovarlarni xarid qilish uchun tuzilgan shartnomalar tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida hamda mijozga xizmat ko'rsatuvchi bankda albatta qayd etilishi kerak.

4. Tijorat «spot» kurslarining bozor bahosini shakllantirishda ayrim muammolarni mavjudligi. Bu joriy savdo operatsiyalarini, banklarning depozit ssuda operatsiyalarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladi, chunki bunda kursning keskin va favqulotda o'zgarish xavfi saqlanib qoladi.

Xalqaro hisob-kitob operatsiyalari to'lov nisbatan yuqori darajada kafolatlangan hisob-kitob shakllarida amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda xujjatlashtirilgan akkreditiv bilan xujjatlashtirilgan inkassadan asosiy hisob-kitob shakli sifatida foydalanilmoqda. Hozirgi paytda valyuta operatsiyalarini amalga oshirilishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omil - bu valyutaning ichki va tashqi erkin ayrboshlanishidir. Valyutani erkin ayrboshlashning yo'qligi, Markaziy bank tomonidan qat'iy belgilangan almashtirish kurslarining o'rnatilishini valyuta operatsiyalariga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada so'ndiradi. Ichki ayrboshlashdagi cheklovlar birinchi navbatda mahalliy banklarga valyuta tushumlarini va valyuta operatsiyalarini amalga oshirishdan kelishi mumkin bo'lgan foydadan mahrum qiladi. Tashqi valyuta ayrboshlashning erkin emasligi birinchi navbatda chet eldagi sarmoyadorlarda mamlakatimiz iqtisodiyotiga bo'lgan qiziqishni ancha sustlashtirgan. Buning natijasida xorijiy sarmoyalar natijasida kelib

tushishi mumkin bo'lgan valyuta tushumlarining ancha qismidan mahrum bo'lganmiz. Kapitallar xarakati bo'yicha cheklov ham investitsiya jarayonlarini ancha susaytirdi. O'zbekiston Respublikasida qonuniy to'lov vositasi O'zbekiston so'mi bo'lgani uchun, barcha investitsion proektlar, qarzlar, kreditlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank orqali amalga oshiriladi. Bu esavalyutani Markaziy bank o'rnatgan narxlarda sotishni ko'zda tutadi va albatta bunday holat korxonalar (firma)larning zarar ko'rishiga olib keladi. Natijada kapitallarning respublikaga oqimi juda past va bu ham o'z navbatda oltin- valyuta rezervlarini oshishga yordam bermaydi. Oltin valyuta rezervlarining past darajada bo'lishi esa, o'z navbatida, konvertasiyani ochib yuborishga xalaqit beradi, chunki xukumat ochiq konvertasiya sharoitida o'zining barcha oltin-valyuta zahiralari ajralib qolishdan qo'rqadi.

Lekin asosiy muammo - bu import xajmining yuqoriligi va eksport tarkibining optimal emasligidir. Respublikamiz millionlab AQSh dollarlarni asbob uskuna, yangi texnologiyalar, nou-xau, bundan tashqari mashinalarni xarid qilishga sarflaydi. Bu sarflarni qoplash uchun yetarli darajada valyuta tushumlari bo'lishi lozim. Mijozlar bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarida ham bir qator muammolar mavjud. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida banklar tomonidan faqatgina hujjatlashtirilgan akkreditiv va inkassadan usullarida foydalanish. Boshqa hisob-kitob usullari O'zbekiston amaliyotida qo'llanilishi chegaralangan. Xalqaro amaliyotda bank o'tkazmasi, akkreditivning boshqa shakllari, chek va veksellardan ham foydalaniladi. Bu usullarning joriy etilishi valyuta operatsiyalarini takomillashtirishga qo'llanilgan bo'lar edi. Chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalarida ham ularni hisobga olish bo'yicha ba'zi muammolar mavjud. Jumladan valyutani birjadan sotib olish jarayonining uzoq davom etishi, kurs farqini yuzaga kelishi oqibatida buxgalteriya hisobida qayta baholash ishlarini qiyinlashishiga olib keladi. Valyuta konversiyasi bo'limlarida valyuta sotish va sotib olish operatsiyalari ham to'la shakllanmagan. Bunga sabab: valyutalarni bir xilligi – faqat AQSh dollari, valyuta sotish va sotib olishdagi cheklovlar, qora bozor va bank kursi orasidagi farqlar hisoblanadi. Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan “O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini

amalga oshirish qoidalari” tartiblandi (joriy yilning 31 avgust kuni Adliya vazirligida 3281-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi). Ushbu Qoidalarga muvofiq, valyutani tartibga solish sohasidagi tartibotlar soddalashtirilib, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normalar bekor qilindi. Shu bilan birga, amaldagi me‘yoriy hujjatlarni unifikatsiya qilish maqsadida 5 ta normativ-huquqiy hujjat o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilib, ulardagi normalar xalqaro tajribaga muvofiq yagona hujjatda o‘z aksini topdi. Ushbu hujjat bilan: tijorat banklari tomonidan rezidentlar va norezidentlarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlarini yuritish tartibi; ichki valyuta bozorida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan chet el valyutasini sotish va sotib olish operatsiyalarini amalga oshirish tartibi;

jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini
amalga oshirish tartibi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida naqd chet el valyutasini qabul qilish tartibi;

tijorat banklari tomonidan naqd valyuta mablag‘larini O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish va olib kirish tartibi belgilandi. Bank sohasida olib borilayotgan bunday islohotlar kelajakda o‘z natijasini berishi aniq. Valyuta ayirboshlash shahobchalarida valyuta operatsiyalarini yangi bosqichga ko‘tarish uchun esa yangi tizimni OneID tizimini qo‘llash bo‘yicha istiqbolli ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 y ill 2 sentyabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish vabarqarorligini oshirishga doir choratadbirlar to'g'risida" giqarori. www.lex.uz.
2. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. 7-е изд. Пер. с англ. - М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. - 880 с.
3. Куликов А.Г. Деньги, кредит, банки: Учебник. - М.: КНОРУС, 2009.- 656 с.
4. Лаврушин О.И. Деньги. Кредит. Банки. Учебник под. ред. - М Кнорус, 2014 -320 с.